ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NORMATIV MATN TALQINIDA SINTAKTIK QAMROVNING O'RNI

Elova Dilrabo Qudratillayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Huquqiy matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasi keyingi yillarda yurislingvistika, sud lingvistikasi (forensic linguistics) hamda huquqiy diskurs tadqiqotlarida faol muhokama qilinayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Normativ matnni talqin qilish jarayoni ko'pincha alohida so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlash yoki grammatik shakllarni tavsiflash bilangina cheklanmaydi. Ayniqsa, soliq va boshqa qonunchilik normalarida gaplarning sintaktik qurilishi, bog'lovchilarning qo'llanishi, havola qiluvchi birliklarning aniqligi hamda xatboshi chegaralari huquqni qo'llash amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Huquqiy matn yuqori darajadagi normativ yuklama bilan tavsiflangani sababli, undagi kichik sintaktik tafovut yoki havolaviy noaniqlik turlicha talqinlarga imkon beradi. Bunday vaziyatlar, ayniqsa, huquqiy diskursda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki soliq majburiyati, imtiyoz yoki javobgarlik bilan bog'liq norma noto'g'ri talqin qilinganda uning oqibati nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy va huquqiy xarakter ham kasb etadi.

Sud lingvistikasi an'analarida huquqiy matnning semantik noaniqligi, sintaktik murakkabligi va talqin moslashuvchanligi masalalari uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. P.Tiersma huquqiy tilning arxaik va ko'p qatlamli sintaktik tabiati talqinni murakkablashtirishini qayd etadi[1]. M.Coulthard sud-lingvistik ekspertizada matnni obyektiv talqin qilish muammosiga e'tibor qaratadi[2]. Grice konsepsiyasi esa qonun matnida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan ma'nolar qanday shakllanishini tushuntirishga yordam beradi[3]. Diskursning ichki bog'lanishlari va kogerentligi haqidagi qarashlar esa T. van Dijk tadqiqotlarida keng yoritilgan[4] .

O'zbek tilshunosligida yuridik matnlarni lingvistik ekspertiza qilish masalalari asosan leksik-semantik, terminologik yoki stilistik yo'nalishda tadqiq etib kelinmoqda. So'nggi yillarda sud-lingvistik ekspertiza, konfliktli matn va yurislingvistika bo'yicha ayrim izlanishlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, normativ matnni formal mantiq va inferensial pragmatika bilan bog'liq holda tizimli o'rganish hali yetarlicha shakllanmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligidagi sintaktik qamrov, anaforik bog'lanish va presuppozitsion noaniqliklarning normativ talqinga ta'siri hamda ular bilan bog'liq interpretativ kolliziyalar hali yetarlicha o'rganilmagan. «Lingvo-mantiqiy ekspertiza» normativ matnni chuqurroq tushunishga xizmat qiluvchi yondashuv sifatida qo'llanilib, unda gaplarning sintaktik qurilishi, mantiqiy bog'lanishi va kontekstual ma'nolari o'zaro aloqada ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalarini lingvistik va mantiqiy jihatdan tahlil qilish orqali ulardagi ayrim talqin noaniqliklari, sintaktik qamrov bilan bog'liq muammolar hamda matn ichidagi bog'lanishlarning huquqni qo'llash amaliyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslarning daromad turlarini ifodalovchi normalarning sintaktik qurilishi va qamrovi tahlil qilindi. Shuningdek, normativ matndagi bog'lovchilar, havola qiluvchi birliklar hamda yashirin semantik asoslarning norma talqiniga ta'siri ko'rib chiqildi. Ayrim moddalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mantiqiy va kontekstual kolliziyalar tahlil qilinib, qonun matnining lingvistik shakli bilan uni amaliy qo'llash o'rtasidagi ayrim tafovutlar yoritildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga oid 370–377-moddalari tanlandi[5]. E'tibor, asosan, ushbu moddalardagi gap qurilishi, matn ichidagi bog'lanishlar hamda ayrim sintaktik birliklarning norma talqiniga qanday ta'sir qilishiga qaratildi. Shu bilan birga, normativ matnda yuzaga keladigan yashirin ma'no, kontekstual xulosa va ling-

[1] Tiersma P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999.
[2] Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London: Routledge, 2010.
[3] Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
[4] van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
[5] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ–599-son Qonuni (amaldagi tahrir).

vo-mantiqiy xususiyatlar ham tadqiqot predmetini tashkil etdi.

Tadqiqot davomida semantik va diskurs tahlili usullariga murojaat qilindi. Ayrim moddalarda gaplarning ichki mantiqiy qurilishini ko'rish uchun propozitsional modellashtirish elementlari ham qo'llandi. Ba'zi hollarda esa norma tarkibidagi bog'lovchi yoki istisno bildiruvchi birlik o'zgartirilganda ma'no qanday yo'nalishga siljishini kuzatish maqsadida kontrfaktual interpretatsiya usulidan foydalanildi.

Formal mantiq ushbu ishda normativ matnni «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deb qat'iy baholovchi vosita sifatida emas, ko'proq matn ichidagi yashirin bog'lanishlar, sintaktik qamrov va talqin bilan bog'liq ehtimoliy xavfni ko'rsatishga yordam beruvchi tahlil vositasi sifatida qo'llandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, Soliq kodeksining ayrim normalari o'zbek yurislingvistikasi doirasida faqat leksik-semantik jihatdan emas, gap qurilishi, sintaktik qamrov va matn ichidagi mantiqiy bog'lanishlar nuqtai nazaridan ham tahlil qilinganida ko'rinadi. Ish davomida ayrim norma shakllari turlicha talqin qilinishi mumkinligi, matn ichidagi noaniq bog'lanishlar esa huquqni qo'llash amaliyotida bahsli talqinlarga sabab bo'lish ehtimoli kuzatildi.

Huquqiy matnni talqin qilish masalasi tilshunoslik, mantiq va huquq tutashadigan murakkab sohalardan biridir. Ayniqsa, normativ matnning gap qurilishi bilan uning amaliy qo'llanishi bir-biriga to'liq mos kelmagan holatlarda oddiy leksik izoh yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli keyingi yillarda sud lingvistikasi va huquqiy diskurs yo'nalishlarida normativ matn faqat so'z ma'nosi yoki grammatik shakl doirasida emas, balki yashirin ma'no, kontekstual talqin va matn ichidagi mantiqiy bog'lanishlar nuqtai nazaridan ham o'rganilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda huquqiy tilning murakkabligi ko'pincha uning sintaktik strukturalari bilan bog'lanadi. P. Tiersma huquqiy tilning tarixiy qatlamlari saqlanib qolishi natijasida normativ matnlar oddiy kommunikativ nutqdan sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi[1]. Ayrim hollarda huquqiy tilning ana shu murakkab va murakkab va an'anaviy gap qurilishi normaning turlicha talqin qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. M. Coulthard sud-lingvistik ekspertizada matnni yagona va mutlaq ma'no asosida emas, balki bir necha talqin imkoniyatiga ega hodisa sifatida ko'rib chiqish kerakligini ta'kidlaydi[2]. Deborah Cao esa huquqiy diskursda noaniqlikning turli ko'rinishlarini farqlab, ularning normani qo'llash amaliyotiga bir xil ta'sir ko'rsatmasligini qayd etadi[3].

Ushbu maqolada pragmatik yondashuv ham alohida o'rin tutadi. H. P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan implikatura konsepsiyasi normativ matnda ochiq ifodalanmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan ma'nolarni tushuntirish imkonini beradi[4]. Soliq qonunchiligida aynan shu yashirin ma'no qatlami ayrim hollarda normaning turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Masalan, norma matnida chegarasi aniq belgilanmagan havola qiluvchi birlik yoki bog'lovchi amaliyotda kengroq talqin qilinishi mumkin.

Diskurs tahliliga oid ayrim yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasida muhim o'rin tutdi. T. van Dijk matnning yaxlitligi faqat grammatik bog'lanish bilan emas, balki uning ichki semantik izchilligi bilan ham bog'liq ekanini ta'kidlaydi[5]. Soliq qonunchiligida esa ana shu izchillik ayrim hollarda yuzaki saqlangandek ko'rinsada, amaliy talqinda turli noaniqliklarni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu sababli qonun matni bu yerda faqat normativ ko'rsatma sifatida emas, balki ma'no va talqin bir-biri bilan kesishadigan murakkab tizim sifatida ko'riladi.

Tadqiqot davomida argumentativ pragmatika bilan bog'liq ayrim yondashuvlarga ham murojaat qilindi. O. Ducrotning lingvistik argumentatsiya haqidagi qarashlari ayrim bog'lovchi va sintaktik shakllarning matnda yashirin talqin yo'nalishini hosil qilishi mumkinligini tushuntirishda foydali bo'ldi[6]. Masalan, qonun matnidagi *«va»*, *«yoki»*, *«bundan mustasno»*, *«shu jumladan»* kabi birliklar ayrim hollarda oddiy grammatik vosita bo'lib qolmay, normaning amaliy qamroviga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida yurislingvistika bilan bog'liq izlanishlar keyingi yillarda asta-sekin shakllanib bormoqda. Mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi sud amaliyotida uchraydigan konfliktli nutq, lingvistik ekspertiza obyektlari hamda muallif identifikatsiyasi bilan bog'liq masalalarga qaratilgan. Xususan, K.Musulmonova lingvistik ekspertizaning nazariy va amaliy asoslarini yoritgan bo'lsa[7], B. Ashurov sud-ekspertiza lingvistikasining huquqiy nizolarni hal etishdagi o'rniga e'tibor qaratadi[8]. Ayrim ishlarda esa yozma nutq ekspertizasi va lingvistik identifikatsiya masalalari tahlil qilingan.

[1] Tiersma P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999.
[2] Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London: Routledge, 2010.
[3] Cao D. Translating Law. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007.
[4] Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
[5] van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
[6] Ducrot O. Dire et ne pas dire: Principes de sémantique linguistique. – Paris: Hermann, 1972.
[7] Мусулмонова К. Лингвистик экспертиза назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Академнашр, 2022.
[8] Ашуров Б. Ўзбекистонда лингвистик низоларни ҳал этишда суд-экспертиза лингвистикасининг ўрни // Xorijiy filologiya. – Самарқанд, 2023.

Shunga qaramay, normativ-huquqiy matnni gap qurilishi, sintaktik qamrov va norma talqini bilan bog'liq yashirin ma'no qatlamlari asosida o'rganish masalasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligi matnining lingvo-mantiqiy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam murojaat qilingan yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Rus yurislingvistikasining ayrim yondashuvlari, xususan, A. Baranov va K.Galyashina ishlari orqali ekspertiza metodlari o'zbek ilmiy muhitiga ham kirib kelgan[1]. Biroq normativ-huquqiy matnni gap qurilishi, mantiqiy bog'lanish va kontekst asosida yuzaga keladigan ma'nolar bilan birgalikda tahlil qilish hali yetarlicha shakllanmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligidagi talqin bilan bog'liq noaniqliklar lingvistik nuqtai nazardan kam o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi bir necha o'zaro bog'liq tahlil yo'nalishlariga tayandi. Avvalo, semantik tahlil orqali normativ birliklarning ma'no chegaralari va ularning kontekstga qarab qanday o'zgarishi ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda semantik, pragmatik va mantiqiy tahlil elementlari birgalikda qo'llanildi. Shu orqali Soliq kodeksining 370–377-moddalarida uchraydigan ayrim talqin noaniqliklari va matn ichidagi bog'lanishlar bilan bog'liq muammolarni tavsiflash imkoniyati paydo bo'ldi.

Ushbu tadqiqotda normativ matn faqat grammatik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki gap qurilishi, kontekst va yashirin ma'no bir-biri bilan bog'lanadigan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqildi. Shu sababli tahlilda bir-birini to'ldiruvchi bir necha lingvistik va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bilan bog'liq normalarni tartibga soladi. Ushbu moddalarning matni tahlil qilinganda ayrim sintaktik noaniqliklar, gap ichidagi mantiqiy bog'lanishlar hamda talqin bilan bog'liq murakkab holatlar ko'zga tashlanadi. Bunday holatlar har doim ham ochiq ziddiyat shaklida namoyon bo'lavermaydi. Ayrim hollarda norma matnining o'zi turlicha talqin qilish imkonini beruvchi yashirin mexanizmlarni yuzaga chiqaradi. Natijada normaning amaliy qamrovi kengayishi yoki, aksincha, torayishi mumkin.

370-modda. Jami daromad tarkibi. 370-moddada jami daromad tarkibi mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar hamda boshqa daromadlar orqali tasniflanadi. Tashqi ko'rinishda bu norma daromad turlarini umumiy guruhlarga ajratishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, modda matnida ushbu toifalarning o'zaro chegarasi har doim ham aniq ko'rinmaydi. Ayrim hollarda bir daromad turi bir nechta kategoriya bilan kesishishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

Ayniqsa, *«boshqa daromadlar»* birikmasi ochiq mazmunga ega bo'lgan kategoriya sifatida ishlaydi. Qonun matnini tuzishda bunday usul ayrim hollarda zarur bo'lishi mumkin, chunki barcha amaliy vaziyatlarni oldindan to'liq sanab chiqish qiyin. Biroq soliq majburiyati bilan bog'liq normalarda ochiq shakldagi bunday birliklar keyinchalik kengroq talqinga sabab bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan 370-modda jami daromad tarkibini umumiy tasnif shaklida belgilaydi. Lekin *«boshqa daromadlar»* kategoriyasining chegarasi aniq ko'rsatilmagani sababli norma amaliyotda turlicha talqin qilinishi ehtimoli saqlanib qoladi.

371-modda. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar. 371-moddada *«hisoblangan va to'lanadigan har qanday to'lovlar»* birikmasi qo'llangan. Norma matnida mehnat shartnomasi asosida bajarilgan ishlar uchun *«hisoblangan va to'lanadigan»* to'lovlar daromad tarkibiga kiritiladi. Yuzaki qaralganda bu yerda *daromadning hisoblanganligi* va *uning real to'langanligi* birgalikda qo'llanmoqda

Amaliyotda ushbu ikki holat har doim ham bir vaqtda yuz bermasligi mumkin. Masalan, korxona ish haqi summasini hisoblagan bo'lishi, biroq moliyaviy sabablar tufayli uni hali to'lamagan bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, soliq amaliyotida ko'pincha hisoblangan summaning o'zi asos qilib olinadi.

Shu nuqtada norma matnining grammatik shakli bilan uning amaliy qo'llanishi o'rtasida ma'lum tafovut paydo bo'ladi. Gapning sintaktik qurilishi ikki holatning birgalikda mavjudligini anglatgandek ko'rinsada, amaliy talqinda ulardan biri ustuvor qo'llanadi. Natijada muammo ochiq ziddiyat shaklida emas, balki talqin va qo'llashdagi farq ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Lingvo-mantiqiy jihatdan asosiy masala bog'lovchining gap ichidagi qamrovi bilan bog'liq. Aynan shu qamrov ayrim hollarda normaning torroq yoki kengroq talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

372-modda. Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar. 372-moddada *«377-moddaning 10-bandida ko'rsatilmagan moddiy yordam»* kabi havola shakli qo'llanadi. Bu yerda norma ma'nosi bevosita tavsif orqali emas, balki istisno asosida aniqlanmoqda. Ya'ni 377-modda doirasiga kirmagan moddiy yordam boshqa huquqiy kategoriya tarkibiga o'tkaziladi.

Bunday usul normativ matnni ixchamlashtirish nuqtai nazaridan qulay bo'lishi mumkin. Shunga qa-

[1] Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста. – Москва: Флинта, 2007., Галяшина Е. И. Судебная лингвистическая экспертиза. – Москва: Юрайт, 2021.

ramay, matnning ichki mantig'i ayrim savollarni yuzaga chiqaradi. Xususan, istisnoga kirmagan har qanday moddiy yordam avtomatik ravishda rag'batlantirish yoki qo'shimcha daromad sifatida talqin qilinishi kerakmi?

Norma matnining o'zida bu chegarani aniqlashtiruvchi mezon yetarli darajada ochib berilmagan. Chunki moddiy yordamning ayrim shakllari rag'batlantirishdan ko'ra ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan 372-moddadagi inkor asosida qurilgan havola moddiy yordamning huquqiy tabiatini aniqlashda qo'shimcha talqin mezonlariga ehtiyoj tug'diradi.

373-modda. Kompensatsiya to'lovlari. 373-moddada *«oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.»* kabi ifoda qo'llanadi. Bu yerda *«yoki»* bog'lovchisi bir-biriga yaqin ko'ringan ikki holatni ajratib turadi. Biroq ushbu birliklar iqtisodiy va huquqiy mazmuniga ko'ra har doim ham bir xil emas.

Bir holatda shaxsga ma'lum naf berilishi mumkin bo'lsa, boshqa holatda avval sarflangan xarajat qoplanadi. Shu sababli norma matnida daromad bilan kompensatsiya o'rtasidagi chegara muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday xarajatni qoplash holatini avtomatik ravishda daromad sifatida baholash ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ayrim vaziyatlarda bu xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni tiklash shakli bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan 373-moddadagi *«yoki»* bog'lovchisi norma doirasini ajratishga xizmat qilsa-da, u bilan bog'langan birliklarning huquqiy tabiati bir xil emasligi ko'rinadi. Natijada norma amaliyotda turlicha talqin qilinishi ehtimoli saqlanib qoladi.

374-modda. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash. 374-moddada *«xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov»* daromad tarkibiga kiritiladi. Bir qarashda bu holat ma'lum darajada paradoksal ko'rinishi mumkin. Xodim ish bajarmagan, biroq unga haq to'lanmoqda.

Biroq mehnat huquqi nuqtai nazaridan bu yerda mutlaq ziddiyat mavjud emas. Chunki xodimning aybisiz yuzaga kelgan bekor turib qolish holati ko'pincha ish beruvchining tashkiliy yoki ishlab chiqarish bilan bog'liq majburiyatlari doirasida yuz beradi. Shunday vaziyatda to'lov bajarilgan ish uchun emas, balki saqlanib qolayotgan mehnat munosabati hamda xodimning aybdor emasligi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Shu jihatdan norma matni *«ishlangan vaqt uchun haq»* va *«mehnat munosabati saqlanganligi sababli to'lanadigan haq»* o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Aks holda ushbu birliklar bir xil iqtisodiy mazmunga ega degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin.

Demak, 374-modda doirasida asosiy masala ochiq mantiqiy zidlikda emas, balki mehnat harakati bilan mehnat munosabatidan kelib chiqadigan to'lovlar o'rtasidagi semantik chegarani aniqlashtirishda namoyon bo'ladi.

375-modda. Mulkiy daromadlar. 375-moddada mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar mulkiy daromad sifatida ko'rsatiladi. Bir qarashda ushbu norma nisbatan aniq va tushunarli ko'rinadi. Shunga qaramay, uni amaliy qo'llashda ayrim savollar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, jismoniy shaxs tomonidan mulkni ijaraga berish qaysi holatlarda oddiy mulkiy daromad sifatida baholanishi, qaysi vaziyatlarda esa tizimli iqtisodiy faoliyat belgisi sifatida talqin qilinishi masalasi ochiq qoladi.

Norma matnining o'zida bu chegarani belgilovchi mezonlar batafsil ochib berilmagan. Albatta, har bir amaliy holatni modda tarkibida alohida sanab o'tishning imkoni yo'q. Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, *«mulkiy daromad»* kategoriyasi ayrim vaziyatlarda boshqa iqtisodiy faoliyat shakllari bilan tutashib ketishi mumkin.

Ayniqsa, faoliyatning muntazamligi, takroriyligi yoki daromad olishning tizimli xarakteri bilan bog'liq holatlar norma talqinida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan 375-modda mulkiy daromadning umumiy doirasini belgilab bersa-da, ayrim amaliy vaziyatlarda qo'shimcha normativ aniqlikka ehtiyoj sezilishi mumkin.

376-modda. Moddiy naf tarzidagi daromadlar. 376-moddada moddiy naf tarzidagi daromadlar tarkibida *«soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash»* kabi ifoda qo'llanadi. Ushbu jumlaning sintaktik qurilishi nisbatan murakkab bo'lib, uning mazmuni bir qarashda darhol anglashilmaydi.

Asosiy masala shundaki, norma xarajatning nima sababdan daromad sifatida baholanishini alohida izohlab bermaydi. Aksincha, u avvaldan «daromad bo'lgan xarajat» sifatida taqdim etiladi. Shu sababli birlikning semantik chegarasi matnning o'zida yetarlicha ochilmay qoladi.

Bu holatni to'liq taftologiya sifatida baholash to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Shunga qaramay, norma matnidagi ifoda lingvistik jihatdan murakkabligi sababli adresat zimmasiga qo'shimcha talqin yukini yuklaydi. Ayniqsa, *«xarajat»* va *«daromad»* tushunchalari bir konstruktsiya ichida kesishib ketgani norma mazmunini darhol anglashni qiyinlashtiradi.

Shu jihatdan 376-moddadagi *«daromad bo'lgan boshqa xarajatlar»* birikmasi moddiy naf chegarasini aniqlashda qo'shimcha izoh va ehtiyotkor talqinga ehtiyoj tug'dirishi mumkin.

377-modda. Boshqa daromadlar. 377-mod-

da 371–376-moddalar doirasiga kirmagan boshqa daromadlarni qamrab oladi. Bunday qoldiq kategoriya qonunchilikda tez-tez uchraydi va odatda asosiy guruhlarga kiritilmagan holatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, soliq huquqida bunday ochiq shakldagi kategoriyalar ehtiyotkor qo'llanishni talab qiladi. Chunki *«boshqa daromadlar»* birikmasining chegarasi norma matnining o'zida yetarlicha aniq belgilanmasa, uning qamrovi amaliy talqinda kengayib ketishi mumkin. Natijada iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan ayrim tushumlarni ham ushbu toifaga kiritish ehtimoli paydo bo'ladi.

Ayniqsa, norma qo'llanayotgan paytda daromadning manbasi, huquqiy tabiati va soliq solish obyekti bilan bog'liq mezonlar bir xil qo'llanmasa, talqindagi tafovutlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu jihatdan 377-modda qoldiq kategoriya sifatida ma'lum normativ vazifani bajaradi. Biroq uning amaliy qo'llanish chegaralari qo'shimcha mezonlar orqali aniqroq belgilanishi ehtiyojini saqlab qoladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Soliq kodeksining 370-377-moddalarida asosiy murakkablik terminlarning lug'aviy ma'nosida emas. *«Daromad», «to'lov», «moddiy naf», «kompensatsiya», «mulkiy daromad»* kabi birliklar umumiy mazmunda tushunarli hisoblanadi. Masala ko'proq ularning norma matni ichida qanday bog'lanishi, qaysi birlikning boshqasiga havola qilishi va buning amaliy talqinda qanday natijaga olib kelishi bilan bog'liq.

Oddiy leksik-semantik tahlil bunday holatlarni har doim ham to'liq ochib bera olmaydi. Chunki u asosan so'z va termin ma'nosiga tayansa, lingvo-mantiqiy yondashuv gapning ichki qurilishi, bog'lovchilarning ishlashi, matn ichidagi bog'lanishlar hamda norma asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xulosalarni ham hisobga oladi.

Shu bilan birga, formal mantiqni huquqiy matn ustidan qat'iy hukm chiqaruvchi yagona mezon sifatida tushunish ham to'g'ri bo'lmaydi. Bu yerda u ko'proq yordamchi tahlil vositasi vazifasini bajaradi. Ayniqsa, normativ matnni tahlil qilishda tabiiy tilning kontekstga bog'liqligi, ma'no moslashuvchanligi va huquqiy maqsadi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu asosda quyidagi tahlil modeli taklif qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Normativ matnni lingvo-mantiqiy tahlil qilish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
Norma	Tahlil uchun qonun matnidagi muayyan birlik yoki norma olinadi
Lingvistik belgi	Bog'lovchilar, havola qiluvchi birliklar, anaforik bog'lanish va gap qamrovi ko'rib chiqiladi
Mantiqiy bog'lanish	Norma ichidagi konyunktiv, dizyunktiv yoki shartli munosabatlar tahlil qilinadi
Pragmatik talqin	Matnning kontekst asosida qanday qo'shimcha ma'no yoki talqin hosil qilishi aniqlanadi
Huquqiy oqibat	Ushbu talqinning soliq majburiyati va norma qo'llanishiga ta'siri baholanadi
Ekspert tavsifi	Aniqlangan noaniqlik yoki talqin bilan bog'liq ehtimoliy muammo ehtiyotkor shaklda ifodalanadi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalari tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy matnni o'rganishda mantiqiy yondashuv muhim yordamchi vosita bo'la oladi. Ayniqsa, sintaktik qamrov, ochiq kategoriyalar, inkor asosida qurilgan havolalar hamda qoldiq shakldagi normalar soliq majburiyatini talqin qilishda qo'shimcha aniqlikni talab qiladi.

Umuman olganda, lingvo-mantiqiy yondashuv huquqiy matnni matematik mantiqqa to'liq bo'ysundirishni maqsad qilmaydi. U ko'proq norma matnida til, kontekst va mantiq bir-biri bilan kesishadigan nuqtalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu jihatdan bu yondashuv o'zbek yurislingvistikasida istiqbolli tahlil yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Rezyume. Maqolada normativ-huquqiy matnlarni talqin qilishda sintaktik qamrovning o'rni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370–377-moddalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muayyan grammatik va sintaktik vositalar, bog'lovchilar hamda havola qiluvchi birliklarning norma qamrovini o'zgartirishi va turlicha talqinlarga imkon yaratishi ko'rsatib berilgan. Tahlillar asosida normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini to'liq baholashda lingvistik tavsif bilan bir qatorda lingvo-mantiqiy yondashuvning metodologik imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Resume. This article examines the role of syntactic scope in the interpretation of legal texts, using Articles 370–377 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan as the research material. The findings show that cer-

tain grammatical and syntactic devices may expand or restrict the scope of a legal norm and, in some cases, give rise to different interpretations. On this basis, the article discusses the possibilities of a linguo-logical approach alongside traditional linguistic description in the analysis of legal documents.

Резюме. В статье анализируется роль синтаксического охвата в толковании нормативно-правовых текстов на примере статей 370–377 Налогового кодекса Республики Узбекистан. На основе анализа положений кодекса показано, как конкретные грамматические и синтаксические средства, союзы и отсылочные конструкции могут изменять объем нормы и допускать двоякое толкование. На этом основании обсуждаются методологические возможности лингво-логического подхода в сочетании с традиционным лингвистическим описанием юридических документов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK SHEVALARIDA LEKSIK TANLOVNING YOSH OMILI: AVLODLARARO QATLAMLANISH

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishi tilni uning egasi, shaxs bilan mushtaraklikda o'rganishni talab qiladi. Bu yondashuvda har bir so'zlovchi o'z nutqida ijtimoiy mansubligini, hududiy kelib chiqishini va avlodlararo tajribasini namoyon etadi. Dialektal lisoniy shaxs ana shu belgilarning yig'indisi sifatida shakllanadi va uning tavsifi bir necha ijtimoiy o'lchov orqali amalga oshiriladi.

Sotsiolingvistikada yosh so'zlovchining lisoniy tanlovini belgilovchi asosiy o'zgaruvchilardan biri sanaladi. U.Labov tadqiqotlari nutqiy variativlik yosh guruhlari bo'yicha izchil taqsimlanishini, har bir avlod o'z davrining til holatini saqlashini o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan[1]. P.Ekert esa variativlikni ijtimoiy ma'no ifodasi sifatida talqin qilib, yosh omilini guruh o'zligi bilan bog'lagan[2]. Bu qarashlar bir jamoaning turli avlodlari nutqini qiyoslash orqali dialektning ichki dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek dialektologiyasida shevalar asosan an'anaviy struktura, ya'ni hududiy va tarixiy-genetik mezonlar asosida tasniflangan, leksik qatlam ko'pincha statik holatda o'rganilgan. So'zlovchining yoshi leksik tanlovga qanday ta'sir qilishi alohida tadqiqot predmeti bo'lmagan. Holbuki dala kuzatuvlari bir qishloq doirasida ham avlodlar nutqi sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim leksik birliklar faqat keksalar nutqida saqlanadi, boshqalari esa yoshlar nutqida ko'proq uchraydi. Maqolaning maqsadi Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlaridan to'plangan dala materiallari asosida uch avlod nutqidagi leksik qatlamlarni qiyoslab, yosh omilining dialektal lisoniy shaxs tavsifidagi o'rnini aniqlash hisoboblanadi.

Til va jamiyat munosabatlarini o'rganuvchi sotsiolingvistika fani XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. U.Labovning shahar aholisi nutqi bo'yicha tadqiqotlari lisoniy variativlik tasodifiy emasligini, u so'zlovchining ijtimoiy belgilariga muvofiq tartiblanishini ko'rsatdi. Olim ayni bir hududda yashovchi turli avlod vakillari nutqini qiyoslab, til o'zgarishini real vaqt kechishini kutmasdan aniqlash mumkinligini asoslagan. Bu usul keyinchalik «ko'rinma vaqt» tamoyili nomini oldi. Turli yoshdagi so'zlovchilar nutqi bir paytning o'zida tilning ketma-ket bosqichlarini aks ettiradi.

Lisoniy shaxs nazariyasi til birligini uni qo'llovchi

[1] Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P. 178–180.
[2] Eckert P. Three Waves of Variation Study // Annual Review of Anthropology. – 2012. – Vol. 41. – P. 87–90.